



## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA TAFFAKUR BUZILISHINING SABABLARI

*Toshboltayeva Nodiraxon Ibrohimjonovna*

*FarDU psixologiya o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur jarayonining buzilishiga olib keluvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Psixologik, biologik va ijtimoiy omillar tafakkur rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi yoritib beriladi. Shuningdek, nevrologik muammolar, ota-onaning tarbiyadagi xatolari, psixologik travmalar va ijtimoiy muhitning salbiy omillari bolalarning intellektual rivojlanishiga qanday salbiy ta'sir ko'rsatishi misollar orqali ko'rsatib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha yosh, tafakkur buzilishi, psixologik omillar, biologik omillar, tarbiya, rivojlanishdagi muammolar, erta tashxis, nevrologik buzilishlar, intellektual rivojlanish, bolalar psixologiyasi.

**Аннотация:** В данной статье будут проанализированы основные факторы, приводящие к нарушению мыслительного процесса у дошкольников. Будет освещено, как психологические, биологические и социальные факторы влияют на развитие мышления. Также на примерах показано, как неврологические проблемы, ошибки родителей в воспитании, психологические травмы и негативные факторы социальной среды негативно влияют на интеллектуальное развитие детей.

**Ключевые слова:** дошкольный возраст, нарушения мышления, психологические факторы, биологические факторы, воспитание, проблемы развития, ранняя диагностика, неврологические расстройства, интеллектуальное развитие, детская психология.

**Annotation:** This article analyzes the main factors that lead to a violation of the thinking process in preschool children. It is illuminated how psychological, biological and social factors affect the development of thinking. It is also shown through examples of neurological problems, errors in parenting, psychological



*trauma and how negative factors of the social environment negatively affect the intellectual development of children.*

**Keywords:** preschool age, thinking disorders, psychological factors, biological factors, upbringing, development problems, early diagnosis, neurological disorders, intellectual development, child psychology.

Tafakkur – bu bola atrof-muhitni anglash, voqea-hodisalar orasidagi bog‘liqlikni tushunish, muammolarni hal qilish qobiliyatidir. Maktabgacha yosh – bola psixikasi va tafakkuri jadal rivojlanadigan muhim davr hisoblanadi. Bu davrdagi ijtimoiy, psixologik va biologik omillar tafakkur jarayonining sog‘lom shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Afsuski, ba’zan bu jarayon buzilishi mumkin va bu holat bolaning keyingi intellektual va ijtimoiy hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolalarda tafakkurning buzilishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

1. Biologik omillar:

- tug‘ma kasalliklar: genetik kasalliklar, xromosomal sindromlar, homiladorlik davridagi infektsiyalar yoki gormonal buzilishlar tafakkur rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

- asab tizimining buzilishi: neyrologik kasalliklar, miya rivojlanishidagi anomaliyalar, bosh miya jarohatlari tafakkur faoliyatida sustlik yoki cheklanishlar keltirib chiqaradi.

2. Psixologik omillar:

- emotsiyal stress: bola ziddiyatlar, qo‘rquv, beqarorlik muhitida o‘sgan bo‘lsa, bu uning psixik rivojlanishiga, xususan tafakkuriga salbiy ta’sir qiladi.

- psixik travmalar: yoshlik paytidan og‘ir hayotiy voqealar (o‘lim, ajralish, zo‘ravonlik) bolada fikrlash va eslab qolish jarayonlarini zaiflashtiradi.

3. Tarbiyaviy va ijtimoiy omillar:

- yetarli muloqot yo‘qligi: katta yoshdagilar bilan muntazam va sifatli muloqot qilinmagan bolalarda so‘z boyligi va mantiqiy fikrlash rivojlanmaydi.

- gadgetlar va passiv tarbiya: Bolaning faqat telefon, planshet orqali vaqt o‘tkazishi u bilan jonli muloqotning yo‘qligiga olib keladi va tafakkurda cheklanish paydo bo‘ladi.



- o‘yin va ta’lim faoliyatining sustligi: Konstruktiv o‘yinlar, rasm chizish, hikoya tuzish kabi faoliyatlar tafakkurni rivojlantiradi. Ularning yo‘qligi esa salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tafakkur buzilishining sabablari ko‘p qirrali bo‘lib, ularni erta aniqlash va oldini olish uchun ota-onalar, pedagoglar va psixologlarning hamkorligi zarur. Bola tafakkurining sog‘lom rivojlanishi uchun sevgi, e’tibor, ijtimoiy muloqot va sog‘lom muhit muhim ahamiyatga ega. Davolash yoki tuzatish choralarini vaqtida ko‘rilsa, bola salohiyatini to‘liq ochib bera oladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Vygotskiy L.S. (1983). Psixologiya va rivojlanish nazariyasi. Moskva: Pedagogika.
2. Bo‘ronova Z.T. (2019). Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
3. Muminova R.A. (2020). Maktabgacha ta’limda maxsus pedagogika asoslari. Toshkent: Innovatsiya.
4. Piaget J. (1972). Intellektual rivojlanish bosqichlari. Nyu-York: International Universities Press.
5. Xodjayeva N.S. (2017). Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.